

O'ZBEKISTON-DUNYO E'TIROFIDA

To'rabekov Elbek Otabek og'li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika universiteti Xalqaro munosabatlar talabasi.

Annotatsiya; *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar, qo'shni va xorijiy davlatlar bilan o'zaro do'stona munosabati hamda bu kabi davlatlar bilan amalga oshiriyotgan strategiyasini yoritib beraman. Shu bilan birgalikda, davlatimizning tashqi aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida turli tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar; *Dunyoda tutugan o'rni, Markaziy Osiyo global taraqqiyot, millatlararo munosabatlar, O'zbekiston dunyo ko'zida.*

KIRISH

O'zbekiston hozirgi kunda dunyoning yetakchi davlatlari qatorida turganligi hech kimga sir emas. Bizning yurtimizdagi barcha imkoniyat va loyihalar yurtimizni dunyoni yetakchi qatorida turishi uchun xizmatga sarflanyotgani ham ma'lum. Shuni ma'lumki O'zbekiston yetuk jahon tashkilotlariga qonuniy a'zodir. Misoli uchun; Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) (1992-yil, 2-martda). MDH (1991-yil, 21-dekabr dan). TURKSOY (1993-yil, 12-iyul). Turkiy davlatlar tashkiloti, Shanхай hamkorlik tashkiloti (SHHT) (2001-yil, 15-iyun). Osiyo Parlament Assambleyasi (OPA) (2006-yil). UNESCO (1993-yil, 26-oktyabr). Kabi xalqaro tashkilotlarga a'zoliigi bizga ma'lumki, O'zbekistonning tashqi konsepsiyasiga binoan harbiy tashkilotlarga a'zo bo'lishligi mumkin emas, shu sababli ba'zi harbiy bloklarga, harbiy tashkilotlarga a'zo bo'lmaydi va qurolli ishlarga aralashmaydi. Hozirgi vaqtda, Xalqaro tashkilotlarning soni 4 mingdan ortiq bo'lib, 300 tasi hukumatlararo tashkilotdir. O'zbekiston Respublikasi 50 dan ortiq nufuzli Xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a'zosi. Bu kabi tashkilotlarda yurtimizning o'rni ulkandir, Misoli uchun; birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 1993-yildagi birinchi nutqi va ikkinchi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 23-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida yuqori darajadagi umumsiyosiy munozaralarda ishtirok etadi. Unda asosiy masalalar; Osiyoning yaxlitligi, Afg'oniston muommosi, Orol muommosi va Terrorchilik kabi dolzarb muommolarni ko'targani alohida e'tiborga moyil. Bundan tashqari o'zbek tilidagi nutqi davlat tilimizga bo'lgan hurmatning yaqqol misoli va dunyoning barcha mamlakatlari O'zbekistonni va tilini bilishi kerakligini yaqqol ko'rsatib qo'ydi. O'zbekistonda hozirgi vaqtda ham demokratlashtirish davom etayotgani va xalq bo'lgan e'tibor yoqoriligini dunyo e'tirof etmoqda. Darhaqiqat, O'zbekiston Yevropa ittifoqi va Yevropa davlatlari bilan hamkorlikni o'z tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb biladi. So'nggi yillarda O'zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan barcha jabhalardagi munosabatlari jadal sur'atlarda rivojlanib borishi najjasida o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi davr boshlandi deb aytsak bo'ladi. Birgina misol. Prezidentimizning Fransiyaga (2018-yil fevral) rasmiy

tashriflari tashkil etilib, ularning natijalari bo'yicha siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madani-gumanitar va boshqa sohalarda salmoqli kelishuvlarga erishildi. O'z navbatida, GFR Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer (2019-yil may) va Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'on (2018-yil aprel) mamlakatimizga javob tashrifini amalga oshirganini alohida qayd etish joiz. Biz so'nggi vaqtlarda Yevropa itifoqi bilan en yuqori va oliy darajadagi muloqat ilgari kuzatilmagan darajada faollashotganiga guvoh bo'ldik. Xususan, 2019-yil may oyida Yevropa Kengashi rahbari Donald Tusk ilk marotaba O'zbekistonga tashrif buyurdi. Bundan tashqari, YIning Tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha endilikda sobiq oliy vakili Federika Mogereni ikki marta (2017-yil noabr va 2018-yil mart oylari) respublikamizga tashrif buyuradi. Bu kabi oliy darajadagi uchrashuvlar yurtimizga bo'lgan e'tibor va e'tirofdan deb o'ylayman. Bundan tashqari yurtimizga yaqin kunlarda Fransiya Prezidenti tashrif buyurdi (2023-yil noyabrda). Bu ham katta siyosiy jarayondi sababi, bundan oldin Fransiya Prezidenti Mitteran kelgan edi. Tashrif maqsadi; energetik hamkorlik, Fransiya atom energetikasi bo'yicha birinchi, ular orqali ishlab chiqariladigan elektr energiyasi bo'yicha esa uchinchi o'rinda turadi bu esa manfaatli shartnoma tuzishga olib kelishi tabiiy. Markaziy Osiyonig qoq o'rtasida joylashgan, eng yirik inson salohiyati hamda barcha mintaqa mamlakatlari bilan umimiy chegaraga ega yagona davlat-O'zbekistondir. Siyosiy muzlar erib, 2017-yil 17-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev << mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratishga erishilgan va bu tendinsiyaning mustahkamlanishi Markaziy Osiyo davlatlari prezidentlari muntazam uchrashuvlar o'tkazishi uchun imkoniyat yaratsih. > haqida dasturiy nutq qilgandi. Bu nutq MMarkaziy Osiyodagi siyosiy aloqalarni yangi bir bosqichga ko'targan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Undan avval, 2017-yil 7-fevralda tasdiqlangan 2017-2021-yillar uchun Harakatlar strategiyasining 'chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar' deya tavsiflangan 5.2-bandida O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahli qo'shnicilik muhitini shakllantirish atamasi ortida Afg'oniston ham nazarda tutilgan. Bu o'z-o'zidan qo'shnilarga bo'lgan munosabatlarni va u yerda bo'layotgan ishlarga befarq emasligimizni ko'rsatadi. O'zbeklarda aytadiki; 'Qo'shning tinch-sen tinch'-deb. Preziden Shavkat Mirziyoyening Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini o'tkazish to'g'risidai taklifi amalga oshirildi. Ushbu tashabbus xalqaro miqyosda keng tan olindi va mintaqa davlatlarining barcha rahbarlari qo'llab-quvvatladi. Hozirgi kunda O'zbekiston oldida Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishdek muhim vazifa turibdi. Jahon savdo tashkiloti mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo muloqotlarini o'tkazish va bu boradagi nizolarni hal qilish imkoniyatin beruvchi tashkilot hisoblanadi. Bu tashkilotning asosiy maqsadi a'zo mamlakatlar o'rtasida savdoni yuksaltirish bilan birgalikda, munosabatlarga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi. Bugungi kunda dunyoning 164 ta davlati unga a'zo BMT mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy monosabatlarni, JST tashkiloti esa ular o'rtasidagi savdo munosabatlarini tartibga solidi. Shu bilan birga, JSTda BMT va boshqa xalqaro institutlardan farqli o'laroq, a'zo

mamlakatlar tomonidan majburiy ravishda rioya etiladigan xalqaro savdo qoida va tamoyillardan tashqari, savdo tartiblarini samarali qo'llash va o'zaro nizolarni hal qilish mehanimi mavjud. Tashkilotning asosiy xalqaro savdo tamoyillari haq-huquqlar cheklanmagan va halol raqobat qoidalaridan iborat. Bu tashkilot O'zbekistonga keng imkoniyatlar beradi bu esa hozirgi rivojlanayotgan O'zbekistonga zarurdir. O'zbekistonning pozitsiyasi juda muhim va a'zo bo'lishi boshqa a'zo davlatlarga ham manfaatli bo'ladi, sababi yurtimizning dunyoda tutgan o'rni ulkan ekanligi va prezidentimizning olib borayotgan siyosati ko'p davlatlar tomonidan ijobiy e'tirof etilyotgani va JSTga ham a'zo bo'lishimizni osonlashtiradi bu omillar. JSTning o'ziga yarasha me'yor va qoidalari mavjud bo'lib ularni O'zbekiston barchasiga rozilik berib, normativlarga javob bera olsa, JST tashkiloti ham mamnuniyat ila yurtimizni o'z safiga qabul qiladi. Tashkilotga a'zo bo'lgach, ko'pgina taraqqiy topgan davlatlar bilan teng huquda savdo muzokaralarida ishtirok etish va muommolar yuzasidan murojaat qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa, yurtimizning 2030-yildagi prognozi amalga oshishida muhimdir. Ya'ni; prezidentimizning 2017-yildagi nutqida O'zbekiston 2030-yilda rivojlangan mamlakatlar 50 talik qatoriga kiradi, -degan edi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun davlat o'zgaruvchan dunyoda kelajak istiqbollarni ko'ra oladigan fuqarolarni milliy ma'naviyat va o'zlikni anglashni tarbiyalash zarur. Oqil davlatning yomon davlatdan farqli o'laroq asosiy mulki diplomatlarning ongi, tafakkuri vama'naviy olamidir. Diplomatiya ikki qirrali qurol bo'lib, agar uni ushlab turgan qo'l kuchsiz bo'lsa va undan yaxshi foydalanishni bilmasa, o'z davlatiga og'irlik qiladi va unga zarar yetkazishi mumkin. Bu qobilyatlar davlatlararo munosabatlarda tub o'zgarishlarni keltirib chiqarishi kerak, bu esa milliy o'zini anglashdarajasiga juda bog'liq. Zamonaviy globallashuv jarayonida milliy madaniyatlar Yevropa va boshqa qoliplarning kuchli ta'sirida diplomatic organlar va boshqa tuzilmalar ularga xorijiy jamiyatlarda madaniy va ijtmoy moslashuvida yordam berishi mumkin. Hozirgi vaqtda yurtimizning elchihonalari ko'plab davlatlarda ish yuritib kelmoqda bu esa o'z-o'zida davlatlar bilan aloqalarimizni va kelishuvlar olib borishimizga olib keladi. Dunyo O'zbekiston tanolmoqda biz bundanda ko'prog'ini ya'ni barcha davlatlar bizni yurtimiz bilishini, tilimiz qanaqa ekanligini o'zimizning milliy brendlarimiz bo'lishi kerakligini aytib o'tmoqchiman.

Biron bir mahsulotimiz bo'lishi kerakki, bu mahsulot bilan butun dunyoni zabt eta olaylik. Misoli uchun; coca-cola, Mc Donald's va boshqalar kabi barcha qit'ada va barcha shaharlarda mahsulotimiz bo'lishi kerak bu o'z-o'zidan yurtimizni mashhur ham dunyoni yetakchi davlatlari qatorida turishimizga olib keladi. Davlatimizda juda kop milliy taomlar, miliy qadriyatlar, urf-odatlar, milliy bayramlarimiz ko'p. Dunyoning boshqa mamlakatlariga bizning milliy narsalarimiz qiziq ekanligiga ishonchim komil, faqat biz ularni tanita olishimiz kerak. Vatanimizni bilib turadigan jihati bo'lmog'ligi kerak, dunyoning barcha nuqtasida uni ko'rib tanib ola olishi kerak. Biz u uchun bayramlarimizni keng ko'lamda nishonlashligimiz kerak, ya'ni chet ellik mehmonlarni va elchilarni jalb qilishligimiz zarur va ularni chet elda ham nishonlashligimiz, haftaliklar qilishimiz zarur. Chet eldagi

yurtdoshimizlarga bu bayramlar kerak,ularga bu vatan hissini kuchaytiradi va yurtimizga bo'lgan sevgini kuchaytirib,chet elliklarda qiziqish uyg'otadi.Bayramlarimizga qiziqish uyg'ota olsak bizning vatanga qiziqish uyg'onadi bu turistlar kelishini ham ko'payishiga olib keladi.Vatanimiz tarixi boy ekanligi va buni barcha bilishi kerkaligi,yurtimizning qtsodi va siyosatiga bu narsalar ko'p foydalar olib keladi,yurtimizga ko'pchilik davlatlar qiziqish uyg'otayotgani va ular bizning yurtni milliy an'analriga qiziqayotgani sir emas,bu ham bizning tuproqning ulug'ligi va muqaddasligidan dalolat beradi.Vatanimiz boy millat ekanligi uning tarixi uzoq o'tmishga borib taqalishi sir emas biz bundan to'g'ri yo'lda foydalanishimiz zarur sababi,bu boyliklar bizga moddiy boylikni olib kelad oladi.Yurtning rivojlanishi rivojlanayotgan davlatdan rivojlangan mamlakatga aylanishimizga ham yordam bera olishiga ishonaman.Tarixiy shaharlarimiz;Samarqand,Buxoro,Xiva kabi shaharlarni tarix ihlosmandalariga ko'proq tanitishimiz kerak dunyoni narigi chetida turgan isnon O'zbekistonning Samarqand degan tarixiy va milliy shahri borligini bilishi bu bizning dunyo tanishidan dalolat beradi.Biz bu uchun ijtimoiy tarmoqlarda ko'proq ularni olib chiqishimiz zarur va ularni tavsiya qilishimiz kerak.O'ylaymanki,yurtning asosiy pul manbai turizm bo'lishligi bu yaxshi sababi bu resurs hech qachon tugamaydi faqat biz kelayotgan turistlarga yaxshi xizmat ko'rsata olishimiz kerak,ularning barcha talablariga javob bera olishimiz kerak.Bundan tashqar yurtni il-fan va sport juda mashhur qiladi.Ilm-fanagi yangi texnologiyalar yoki erishilyotgan yutuqlarning barchasi yurtni tanitadi yurtga bo'lgan hurmatni oshiradi va yurtni ham il-fan rivojlantiradi.Agar xalq ilmi va ma'rifatli bo'lsa yurt hech qachon tanazzulga yuz tutumaydi.Sport ham yurtni ana shunday tanita oladi va yurtni mashhur qilia oladi,misoli uchun yurtimiz erishayotgan yutuqlar so'nggi vaqtlarda ula bizni dunyo arenalarida bayrog'imiz barchaninkidan baland tueishligi shubhasiz yurtimizni barcha tan olishligiga olib keladi.Boks bo'yicha sporchilarimiz erishayotgan yutuqlar va jahon chempionatida doim oltinlar olishimiz biznig sportga bo'lgan e'tiborimizni va yurtimiz shu sport bo'yicha ustun ekanligini yaqqol namunasidir.Shahmat bo'yicha ham hozirda oldingi o'rinlardamiz bizni bu sport turlari bo'yicha tanib olishiga olib keladi.Boshqa sportlardan ham biz yetkchi bo'lib bayrog'imizni balandlarga ko'tarishimiz kerak,bizning muqaddas madhiyamiz barcha arenalarda yangrashi zarur.Prezidentimiz aytganidek yurtni hech qaysi narsa sportchalik tanitmaydi.Shu sababli ham asosiy e'tiborni birinchi navbatda ilmga,keyingisi esa sportga tikishimiz zarur bu bizning millatni ham yuksaltirib hech qachon hech qaysi davlat yoki millatdan orqada qolmasligimizni ta'minlaydi.Ilmida bizning yurtimizda qancha allomalar,faylasuflar chiqqanligi yurtimiz ikkita renessansni boshdan kechirgani bu biznig qanchalar buyuk davlat ekanligimizdan dalolat beradi.Yurtimizdan o'tgan ulug' olimlarga mos avlod bo'lmog'ligimiz shart.Lashkarboshi sifatda ham jahon tanigan va tan olgan ota-bobolarimiz o'tgandir,misoli uchun;Amir Temur,Bobur mirzo,Jaloliddin Manguberdi va Temur Malik kabi yurtdoshlarimiz haqiqiy qahramonlik ko'rsatganligini butun dunyo tan olyotganligi sir emas.Bundan tashqari ko'pchilik bobokalonlarimizning tarixiy meroslaridan ko'pchili davlatlar foydalanganligi ham sir

emasdir; Abu Ali Ibn Sinoning <Tib qonunlari> kitobidan Yevropada XVI asrgacha foydalanganligi va Mirzo Ulug'bekning 1018 ta turg'un yulduzni o'rnini aniqlagani hozirgi dunyo olimlari kompyuterlarda hisoblashganda 1 daqiqa-yu 2 sekundga adashganligi bu adashmaslik bilan teng sababi, uning hech qanday kompyuteri va zamonaviy hisob kitob mashinlari bo'lmaganligi ma'lum. Ha azizlar yurtimiz shunaqa qadri va muqaddasdir, bu zamizdan qanchalar buyuk shahslar o'tkan biz ularga munosib izdosh bo'lgan holda yurtimizning oldingi qatorda bo'lishini ta'minlash kerak. Mening fikrimcha biz limning rivoji uchun biz ilm-fanda yangi-yangi loyihalar qilishimiz kerak, hozirda rivojlangan dvlatlarning fandagi yutuqlarini o'zimizga moslagan holda o'zlashtirishimiz kerak. Misoli uchun talaba, oquvchilarni istagan fanni o'qiy olish imkoniyatini yaratish kerak, ularni qiziqishi bo'yicha o'qitish kerak, chunki majburiy o'qitish baribir natijaga olib kelamaydi. Dunyo e'tirof etayotgan davlat ekanligimiz sir emas, lekin ba'zi bir muommolarimiz ham borligi sir emas, bu muommolarni hal etsak rivojlangan mamlakatga aylanamiz. Resurslarimizni asrashimiz kerak sababi qayta tiklanmaydigan resurslarni sarf qilish b resurslarni yo'q bo'lib ketishiga olib keladi, undan ko'ra turizmni rivojlantirish bizga ko'proq va foydaliroq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1-<https://m.kun.uz/uz/news/2021/08/06/ozbekistonning-markaziy-osiyodagi-tashqi-siyosati-erishilgan-yutuqlar-va-amalga-oshirilishi-zarur-bolgan-islohotlar>.

2-https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_tashkilot

3-<http://www.uzembassy.kz/uz/article/ozbekistonning-yevropa-mamlakatlari-va-xalqaro-tashkilotlar-bilan-ozaro-manfaatli-hamkorligida-yangi-davr-boshlandi>.